XALQ DEPUTATLARI YANGIYO‘L SHAHAR KENGASHINING QARORI

2024 - yil 6 - yanvar VI-77-1-10-196-K/24 Yangiyo‘l shahar hokimligi

Yangiyo‘l shahrining 2024 yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Byudjet kodeksining 99-moddasi, O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrdagi “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-886-son Qonuniga muvofiq hamda O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2023-yil 25-dekabrdagi 01/30-2-10352-sonli xatini inobatga olib, Xalq deputatlari Yangiyo‘l shahar Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni ijro va rahbarlik uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrdagi “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-886-son Qonuniga muvofiq, Yangiyo‘l shahar mahalliy byudjetining 2024-yil uchun daromadlari 82 285,0 mln.so‘m va xarajatlari 134 921,5 mln.so‘m prognoz qilinganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin va 1-2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. 2024-yil uchun umumdavlat soliqlaridan Yangiyo‘l shahar mahalliy byudjetiga ajratmalar normativlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, ajratmalar normativlari bo‘yicha viloyat mahalliy byudjeti bilan tuman va shaharlar mahalliy byudjetlarining taqsimotini o‘rnatilgan tartibda Toshkent viloyati bo‘yicha G‘aznachilik boshqarmasi tomonidan amalga

oshirilishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. 2024-yil uchun Toshkent viloyat byudjetidan Yangiyo‘l shahar mahalliy byudjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfert miqdori 66 890,5 mln.so‘m miqdorida belgilansin.

Bunda, tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorini tuman va shahar mahalliy byudjetlari daromadlari prognozi ijrosidan qat’iy nazar kamaytirishga yo‘l qo‘yilmasligi Qonunda belgilab qo‘yilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

5. 2024-yil uchun Yangiyo‘l shahar mahalliy byudjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 1 196,5 mln.so‘m miqdorida belgilansin.

Shaharlar byudjetlarining 2024-yil uchun zaxira jamg‘armasi tasdiqlangan umumiy xarajatlarining kamida 1,0 foizi miqdorida shakllantirilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

Yangiyo‘l shahar mahalliy byudjetini ijro etishda yuqori turuvchi byudjetdan shahar mahalliy byudjetiga ajratiladigan byudjetlararo transfertlarning prognozidan oshgan qismi uchun tegishli byudjetlarining zaxira jamg‘armalar miqdorlariga aniqlashtirish kiritilmasligi inobatga olinsin.

6. 2024-yil uchun Yangiyo‘l shahar mahalliy byudjeti shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 648 355,0 mln.so‘m miqdorida belgilansin.

7. Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha Yangiyo‘l shahar mahalla fuqarolari yig‘inlari kesimida, ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab yer solig‘i stavkasiga 0,7 dan 3,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni qo‘llagan holda yer solig‘i stavkalari 4-ilovaga hamda Shahar hududida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) jismoniy shaxslar bo‘yicha mutlaq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsentlar miqdorlari 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

8. O‘zbekiston Respublikasining mazkur Qonuni bilan 2024-yilda xalq deputatlari Kengashlarini mahalliy byudjetlarni boshqarishda, xususan mahalliy byudjet xarajatlarini hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo‘yicha

vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

9. Shuningdek, 2024 yilda quyidagi soliq turlari:

a) shahar mahalliy byudjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq (yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq bundan mustasno);

davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlaridan tushadigan tushumlar.

b) viloyatning viloyat mahalliy byudjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq;

qonunchilikda belgilangan miqdorlardagi davlat bojlari (patent bojlaridan va litsenziyalar berganlik uchun davlat bojlaridan tashqari);

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjetiga undiriladigan jarimalar;

ayrim turdagi tovarlarning chakana savdosiga doir huquq uchun yig‘imlar;

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjetiga undiriladigan boshqa yig‘imlar (bojxona organlari tomonidan undiriladigan yig‘imlardan, g‘ildirakli transport vositalari, o‘ziyurar mashinalar va ularning tirkamalari uchun undiriladigan utilizatsiya yig‘imidan, shuningdek, avtotransport vositalari oynalarining tusini o‘zgartirishga (qoraytirishga) ruxsatnoma berish uchun to‘lovdan tashqari);

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda davlat daromadiga o‘tkazilgan mol-

mulkni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar, mahalliy davlat hokimiyati organlarining ulushi bo‘yicha dividendlar (daromadlar) va ajratmalar;

yer uchastkalariga bo‘lgan mulk va ijara huquqini auksion orqali sotishdan kelib tushgan pul mablag‘lari;

davlat aktivlarini joylashtirish va sotish (xususiylashtirish)dan qonunchilikda belgilangan normativlar bo‘yicha olingan daromadlar.

v) viloyat byudjeti hamda shahar va tumanlar byudjetlari o‘rtasida quyidagi soliq turlari bo‘yicha taqsimlanadi:

benzinni, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i;

aylanmadan olinadigan soliq;

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq;

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, (elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq bundan mustasno).

Shu bilan birga, Qonunga muvofiq viloyat mahalliy byudjetiga ajratma qilinadigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tushumlarning (jismoniy shaxslar mol-mulkini ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘lanadigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tashqari) 39 foizi;

foyda solig‘idan tushumlarning (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan ro‘yxatga muvofiq yirik soliq to‘lovchilar, O‘zbekiston Respublikasida doimiy faoliyat olib boruvchi muassasa orqali faoliyat yurituvchi O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan, shuningdek, norezidentlarning to‘lov manbaida ushlab qolinadigan daromadlaridan to‘lanadigan foyda solig‘idan tashqari) 38 foizi miqdoridagi tushumlar viloyatning viloyat byudjeti hamda shahar va tumanlar byudjetlari o‘rtasida taqsimlanishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

g) Tamaki mahsulotlari, mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig‘i va alkogol maxsulotlari, shu jumladan, pivo uchun aksiz solig‘idan tushumlar 2023-yil 1-iyul holatiga ko‘ra tuman va shahar aholisining viloyat aholisidagi ulushiga muvofiq shahar va tumanlar mahalliy byudjetlariga o‘tkazib beriladi.

Agar qonunchilikda mahalliy byudjetlarga o‘tkaziladigan daromadlarning taqsimlanishi nazarda tutilmagan bo‘lsa, daromadning ushbu turi viloyat byudjetiga o‘tkaziladi.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-oktabrdagi “Jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan loyihalarni moliyalashtirish ko‘lamini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-409-sonli Qaroriga asosan 2023 moliya yilidan boshlab:

a) «Obod mahalla» dasturlari doirasida moliyalashtiriladigan tadbirlar jamoatchilik fikri asosida «Ochiq byudjet» axborot portali orqali ovoz berish yo‘li bilan aniqlanishi.

Bunda, aholi tomonidan amalga oshirilishi taklif etilayotgan tadbirlar har bir mahalla bo‘yicha bitta loyihalar paketi shaklida ovozga qo‘yilishi;

b) Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika byudjeti, viloyatlarning viloyat byudjetlari va Toshkent shahrining shahar byudjetida shakllangan qo‘shimcha mablag‘larning 30 foizi tuman (shahar)larda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun tuman (shahar)lar Fuqarolar tashabbusi jamg‘armalariga mavjud aholi soni va mahallalar sonidan kelib chiqib, teng ulushlarda yo‘naltirilishi;

v) tashabbusli byudjetlashtirish jarayonlari uchun tuman (shahar) byudjetlarining 5 foizi miqdorida, biroq kamida 6 milliard so‘m mablag‘ rejalashtirilishi belgilanganligi.

g) “Obod mahalla” dasturlarini jamoatchilik fikri asosida tashabbusli byudjetlashtirish jarayonlari orqali amalga oshirilishining yangi tartibi ishlab chiqilishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

11. Yangiyo‘l shahar hokimining birinchi o‘rinbosari (A.Isanbaev), Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshli‘gi (L.Bazarov), Davlat soliq inspeksiyasi (R.Boboev) va mas’ul tashkilotlar bilan birgalikda:

tegishli byudjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy byudjeti prognoz ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarish;

byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

byudjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

tegishli mahalliy byudjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

byudjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

12. Yangiyo‘l shahar davlat soliq inspeksiyasi (R.Boboev) O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida byudjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirish;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlililar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

Bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratsinlar.

xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish vazifasi yuklatilsin.

“Ixtisoslashgan Yangiyo‘l dexqon bozori” MChJ hududida joylashgan yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli ko‘chmas mulk ob’ektlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 26-apreldagi PQ-1326-son hamda Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 28-avgustdagi 253-son qarorilarga asosan bozor hududida yer uchastkalariga ijara shartnomasi asosida bozor ma’muriyatiga ijara to‘lovi amalga oshirayotganligi sababli hisoblanayotgan yer solig‘iga bekor qilinsin.

13. Majburiy ijro byurosi Toshkent viloyat Yangiyo‘l shahar

bo‘limi (J.Radjabov) Yangiyo‘l shahar davlat soliq inspeksiyasi (R.Boboev) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini byudjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsin hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko‘rish vazifasi yuklatilsin.

14. Yakka tartibdagi tadbirkorlardan olinadigan qat’iy belgilangan daromad solig‘i 1,06 koeffitsient etib belgilansin.

15. Yuridik shaxslar olinadigan mol-mulk soliqlariga 1 kvm uchun belgilangan normativ qiymat 1,06 koeffitsient etib belgilansin.

16. Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi (A.Ibragimov) jismoniy shaxslarning yer va mol-mulk soliqlari bo‘yicha joriy hisoblangan soliqlarni hamda ushbu soliqlardan mavjud soliq qarzdorliklarini undirish yuzasidan soliq organlariga amaliy yordam ko‘rsatsin.

17. Yangiyo‘l shahar ichki ishlar bo‘limi (E.Sultanov), shahar yo‘l harakati xavfsizligi bo‘limi (T.Zakirov), Davlat xizmatlari agentligi shahar bo‘limi (S.Saatov) hisoblangan boj, jarima va yig‘imlarni o‘z vaqtida o‘rnatilgan tartibda byudjetga undirish choralarini ko‘rib borsin.

18. Yangiyo‘l shahar Kengashining mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi:

mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi hokimlik tomonidan taqdim etilgan takliflari asosida byudjet qonunchiligiga to‘liq rioya etilgan holda Kengash qaror loyihasini ishlab chiqilishiga;

Kengash qarori asosida mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘larni samarali va maqsadli foydalanishi ustidan nazorat o‘rnatishga va natijalari bo‘yicha tavsiyalar berishga monitoring qilishga;

Mahalliy byudjet xarajatlarining qonunchilikda belgilangan qismining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishida ishtirok etadi va ushbu mablag‘larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirishga mas’ul etib belgilansin.

19. Yangiyo‘l shahar hokimligi:

Shahar mahalliy byudjeti jami xarajatlarining 5 foizi hamda shakllangan

qo‘shimcha mablag‘larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirsin.

Bunda, Yangiyo‘l shahar xalq deputatlari, Yoshlar ishlar agentligi, shahar hokimligi huzuridagi Jamoatchilik kengashlari hamda yangi joriy etilgan hokim yordamchilari byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash maqsadida aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga mas’ul etib belgilansin;

mahalliy byudjetlarning qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan ob’ektlar ro‘yxati, shuningdek qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10 sanasiga qadar majburiy tartibda shahar hokimligi rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borsin.

20. Yangiyo‘l shahar hokimining birinchi o‘rinbosari (A.Isanbaev), xalq deputatlari Yangiyo‘l shahar Kengashi kotibiyati va tegishli tashkilotlar rahbarlari:

mahalliy byudjet daromad va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishi hamda soliq bazasini kengaytirish yuzasidan ko‘rilgan chora-tadbirlar;

ajratilgan byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishi yuzasidan erishilgan natijalar bo‘yicha Kengashga bir chorakda kamida bir marotaba hisobot kiritib borsin.

21. Yangiyo‘l shahar hokimligi Qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlasin.

22. Yangiyo‘l shahar hokimligi matbuot xizmatiga:

mazkur qaror rasmiy e’lon qilinishini va www.yangiyolshahar.uz rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta’minlash tavsiya etilsin.

23. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

24. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari Yangiyo‘l shahar Kengashining Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi hamda Yangiyo‘l shahar hokimining birinchi o‘rinbosari A.Isanbayev

zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **D.Sultanov**

Xalq deputatlari Yangiyo‘l shahar
Kengashining
2024-yil 6-yanvardagi
VI-77-1-10-196-K/24-son qaroriga
1-ilova

Yangiyo‘l shahar mahalliy byudjeti daromadlarining 2024 yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

T/r	Daromad turlari	Jami
1	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	8 472 600
2	Korxonalar aylanmasidan soliq	4 496 000
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	22 439 000
4	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	2 319 000
5	Yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	4 692 000
6	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	7 046 400
7	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	6 350 000
8	Yuridik shaxslar yer solig‘i	4 928 000
9	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	3 507 000
10	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	3 633 000
11	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	148 000
JAMI		**68 031 000**
	Mobil aloqa xizmati va alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz solig‘i tushumlaridan tegishli ravishda o‘tkazib beriladigan daromad	**14 254 000**
12	Alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo	6 178 000
13	Mobil aloqa xizmati	2 489 000
14	Tamaki mahsulotlari aksiz solig‘i	5 587 000
JAMI DAROMAD		**82 285 000**

Xalq deputatlari Yangiyo‘l shahar
Kengashining
2024-yil 6-yanvardagi
VI-77-1-10-196-K/24-son qaroriga
2-ilova

2024 yil uchun Yangiyo‘l shaxar mahalliy byudjet xarajatlarining reja ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkichlar		**Miqdori** (ming so‘m)
	Xarajatlar - jami	**134 921 486**
1.	**Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga xarajatlar - jami**	**90 421 009**
0.1	**Maorif**	**16 762 260**
1.1	- maktabgacha ta’lim	7 859 107
	a) maktabgacha ta’lim tashkiloti	
1.2	- umumiy ta’lim	8 903 153
	a) maktabgacha va maktab ta’lim bo‘limi	
	b) umumta’lim maktablar	
	d) barkamol avlod	
	e) 22-son musiqa maktabi	
1.3	Sog‘liqni saqlash	68 365 402
	a) markaziy shifoxona	
	b) ko‘p tarmoqli markaziy poliklinika	
	s) oilavi poliklinika	
	d) sanitariya epidemiologik osoyishtalik markazi	
1.4	Madaniyat va sport, ommaviy axborot vositalari	5 034 662
	- madaniyat va ommaviy axborot vositalari	1 687 376
	a) madaniyat bo‘limi	
	b) axborot kutubxona markazi	
	s) U.Yusupov uy muzeyi	
	- sport maktabi	3 347 286
1.5	Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga «dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi»	27 600
1.7	Ijtimoiy ko‘nikma markazlari	231 085
2.	**Iqtisodiyotga xarajatlar**	**14 383 034**
2.1	Obodonlashtirish	9 258 348
	a) obodonlashtirish boshqarmasi	
	b) obodonlashtirish boshqarmasi NUR	
	d) obodonlashtirish boshqarmasi it ovlash brigadasi	
	e) obodonlashtirish boshqarmasi drenaj	
	f) obodonlashtirish boshqarmasi qabriston tozalash	
	g) obodonlashtirish boshqarmasi ichki yo‘llarni ta’mirlash	4 000 000
	h) obodonlashtirish boshqarmasi texnika	
2.2	Veterinariya qo‘mitasi	503 334

	Mahalla byudjeti jamg‘armasi	621 352
3	**Davlat boshqaruv organlarini saqlash**	**14 849 634**
3.1	Davlat boshqaruv idoralari	14 849 634
	a) shahar hokimligi	
	b) shahar hokimligi hokim yordamchilari	
	s) shahar hokimligi xotin qizlar va oila bo‘limi	
	d) shahar iqtisodiyot va moliya bo‘limi	
	e) madaniyat bo‘limi	
	f) yoshlar ishlar agentligi Yangiyo‘l shahar bo‘limi	
	i) kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	
	j) xalq deputatlar kengashi kotibiyati	
4.1	**Zahira jamg‘armasi**	**1 196 537**
5.1	**Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi**	**14 071 272**
	Tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar	**66 890 486**

Xalq deputatlari Yangiyo‘l shahar Kengashining
2024-yil 6-yanvardagi
VI-77-1-10-196-K/24-son qaroriga
3-ilova

Umumdavlat soliqlaridan Yangiyo‘l shahar mahalliy budjetiga ajratmalar me’yori

T/r	Shahar va tumanlar nomi	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Benzinni, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	Aylanmadan olinadigan soliq	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq (elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq bundan mustasno)	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq (yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq bundan mustasno)
1	Yangiyo‘l shahri	38	30	80	80	100	50	100	100

Xalq deputatlari Yangiyo‘l shahar
Kengashining
2024-yil 6-yanvardagi
VI-77-1-10-196-K/24-son qaroriga
4-ilova

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha Yangiyo‘l shahar mahalla fuqarolari yig‘inlari kesimida yuridik va jismoniy shaxslardan undiriladigan yer solig‘i stavkalari uchun 2024-yilda belgilangan koeffitsientlar

T/r	MFYlar nomi	Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig‘i stavkalari, 1 ga uchun	
		Koeffitsient (0,7dan 3,0 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2024 yil uchun (ming so‘mda)
1	Baxt MFY*	1,0	51 800
2	Ishchilar shaxarchasi MFY	1,0	51 800
3	Qovunchitepa MFY*	1,0	51 800
4	Lazzat MFY*	1,0	51 800
5	Mevazor MFY*	1,0	51 800
6	Mezon MFY*	1,0	51 800
7	Mustakillik MFY*	1,0	51 800
8	Navruz MFY*	1,0	51 800
9	Olmos MFY	1,0	51 800
10	Oltinobod MFY*	1,0	51 800
11	Ramadon MFY*	1,0	51 800
12	Sabo MFY	1,0	51 800
13	Turkiston MFY*	1,0	51 800
14	Fayzli MFY*	1,0	51 800
15	Fayzobod MFY	1,0	51 800
16	Farovon MFY*	1,0	51 800
17	Yangi bog MFY*	1,0	51 800
18	Yangiobod MFY*	1,0	51 800
19	Nov MFY	1,0	51 800
20	Bog‘bon MFY	1,0	51 800
21	Bahor MFY*	1,0	51 800
22	Yangihayot MFY	1,0	51 800

*Izoh: *Yuqoridagi mahalalardagi Samarqand, Beruniy, Toshkent shox, Sohil, Yangihayot va Qovunchi tepa ko‘chalarida joylashgan yuridik shaxslarga tegishli ko‘chmas mulk ob’ektlariga hisoblagan yer solig‘i **1,2 koeffitsient** etib belgilansin.*

Xalq deputatlari Yangiyo‘l shahar
Kengashining
2024-yil 6-yanvardagi
VI-77-1-10-196-K/24-son qaroriga
5-ilova

Shahar hududida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) jismoniy shaxslar bo‘yicha mutlaq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsentlar miqdorlari

T/r	MFYlar nomi	Jismoniy shaxslar bo‘yicha, 1 kv.m uchun	
		Koeffitsient (0,7 dan 3,0 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2024 yil uchun (so‘mda)
1	Baxt MFY	1,0	466.2
2	Ishchilar shaxarchasi MFY	1,0	466.2
3	Qovunchitepa MFY	1,0	466.2
4	Lazzat MFY	1,0	466.2
5	Mevazor MFY	1,0	466.2
6	Mezon MFY*	1,2	559.4
7	Mustakillik MFY	1,0	466.2
8	Navruz MFY	1,0	466.2
9	Olmos MFY	1,0	466.2
10	Oltinobod MFY*	1,2	559.4
11	Ramadon MFY	1,0	466.2
12	Sabo MFY	1,0	466.2
13	Turkiston MFY	1,0	466.2
14	Fayzli MFY*	1,2	559.4
15	Fayzobod MFY	1,0	466.2
16	Farovon MFY*	1,2	559.4
17	Yangi bog MFY	1,0	466.2
18	Yangiobod MFY	1,0	466.2
19	Nov MFY	1,0	466.2
20	Bog‘bon MFY	1,0	466.2
21	Bahor MFY*	1,2	559.4
22	Yangihayot MFY	1,0	466.2

*Izoh: *Yuqoridagi mahalalarda joylashgan jismoniy shaxslarga tegishli turar obe'ktlariga hisoblangan yer solig'i **1,2 koeffitsient** etib belgilansin.*